



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– aprel holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **258 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **4,2%** ni tashkil topdi.
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **454 taga oshgan.**


2018 yil 1 may holatiga ro'yhatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 14732 taga etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 347 taga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,7 % kamaygan hamda ularning soni 41 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 438 ta (3,2%)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14112 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Urganch shahrida (24,5 %), Urganch (10,4 %), Xiva (10,2%) tumanlarida kuzatilmoqda.

Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 may holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Xorazm viloyati	14732	100,0	14112	100,0
Urganch sh.	3660	24,8	3455	24,5
Xiva sh.	1254	8,6	1231	8,7
tumanlar:				
Bog'ot	738	5,0	722	5,0
Gurlan	882	6,0	828	5,9
Qo'shko'pir	834	5,7	812	5,8
Urganch	1507	10,2	1464	10,4
Xazorasp	1001	6,8	969	6,9
Xonqa	1082	7,3	1049	7,4
Xiva	1505	10,2	1435	10,2
Shovot	721	4,9	668	4,7
Yangiariq	984	6,7	939	6,7
Yangibozor	564	3,8	540	3,8


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,8 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,2 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda, va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda o'zgarmagan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,4 % savdoda, 15,9 % sanoatda, 10,4 % qurilishda, 7,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,0 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % axborot va aloqa hamda 28,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-aprel holatiga 713 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 10,8 % ga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Urganch shahrida (181 ta), Urganch tumanida (108 ta) va Xiva shahrida (64 ta) tashkil etilgan. Eng kam Bog'ot (30 ta), Gurlan (33 ta), Shovot (33 ta) va Yangibozor (33 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (201 ta), sanoatda (134 ta), qurilishda (90 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (61 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (8 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (12 ta) va tashish va saqlashda (27 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-aprel holatiga.	2018 yil yanvar-aprel holatiga.
Jami:	799	713
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	97	61
Sanoat	225	134
Qurilish	66	90
Savdo	173	201
Tashish va saqlash	32	27
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	70	30
Axborot va aloqa	17	8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'r-	17	12
Boshqa turlari	102	150

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,9 f.p.), axborot va aloqada (-0,2 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (-0,1 f.p.), hamda boshqa faoliyat turlarida (-0,2 f.p. dan) kamayganligi buning natijasida savdoda (+0,6 f.p.), sanoatda (+0,3 f.p.), tashish va saqlashda (+0,3 f.p.), qurilishda (+0,2 f.p.), ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.05.2018 y.	01.05.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,2	3,1	-0,9
Axborot va aloqa	1,5	1,7	-0,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,4	7,5	-0,1
Savdo	24,4	23,8	0,6
Sanoat	15,9	15,6	0,3
Tashish va saqlash	4,0	3,7	0,3
Qurilish	10,4	10,2	0,2
Yashash va ovqatlanish	5,4	5,4	0,0
Boshqa turlari	28,8	29,0	-0,2

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 may holatiga 11321 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4019 ta, oilaviy korxonalar – 961 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 6033 ta va boshqalar 308 tani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 52 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 7 taga yoki 15,5 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 47 tasi qo'shma korxonalar, 5 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Urganch shahar 12 ta (23,1 %i), Shovot tumani 11 ta (21,2 %) va Xiva shahar 7 ta (13,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xazorasp tumani 1 ta (1,9 %), Xonqa tumani 1 ta (1,9 %) va Yangibozor tumani 1 ta (1,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 may holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 35 ta (67,3 %), savdoda 10 ta (19,2 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 ta (5,8 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 1 ta (1,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 1 ta (1,9 %) va qurilishda 2 ta (3,8 %) . Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda axborot va aloqada umuman yoqligi ma'lum bo'ldi. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 may holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11250 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 may holatiga qaraganda 3,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2809 tasi (25,0 %) Urganch shahriga, 1252 tasi (11,1 %) Xiva tumani, 1210 tasi (10,8 foizi) Urganch tumani hamda 1126 tasi (10,0 foizi) Xiva shahri hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11250 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3417 tasi (30,4 %) – savdoda, 2218 tasi (19,7 %) - sanoatda, 1454 tasi (12,9 %) - qurilishda, 1029 tasi (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 754 tasi (6,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 553 tasi (4,9%) - tashish va saqlashda, 235 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 196 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1394 tasi (12,4%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-aprel oylarida 612 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida (167 ta), Urganch tumani (88 ta), Xonqa tumani (51 ta) va Xiva shahrida (48 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (20 ta), Bog'ot (30 ta), Gurlan (30 ta), Qo'shko'pir (32 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (200 ta), sanoatda (134 ta), qurilishda (90 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 60 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (8 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (11 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 may holatiga 1000 tani tashkil etib, ulardan 961 tasi yoki 96,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 32,2 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 27,6 % yoki 265 tasi sanoat, 25,9 % yoki 249 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 21,8 % yoki 209 tasi savdo, 10,1 % yoki 97 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,9 % yoki 19 tasi qurilish, 1,2 % yoki 11 tasi axborot va aloqa, 0,9 % yoki 9 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,3 % yoki 3 tasi tashish va saqlash, hamda 10,3 % yoki 99 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi
 Statistika registrlarni yuritish bo'limi
 Nashr uchun mas'ul: **D.Kurbanova**
 (0362) 224-65-11

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
 registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
 tayyorlangan